# SCIENTIFIC ACADEMY

## DELEVOPMENT & SCIENCE & EDUCATION

# "TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA UNGA QARATILGAN YECHIMLAR"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya




# 28.02.2023

Ta'lim sohasidagi xizmatlari uchun

# «SCIENTIFIC ACADEMY»

*Ilmiy tadqiqotlar markazi ©*

## “Ta'lim sohasini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar va unga qaratilgan yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasidagi “Ta’lim sohasidagi xizmatlari uchun” xalqaro koʻrik tanlovining

## MATERIALLARI TOʻPLAMI

**28-fevral,**

1 QISM

OʻZBEKISTON
2023

# SO‘Z BOSHI

Zaminimiz azaldan buyuk alloma va mutafakkirlar yurti bo‘lib kelgan. O‘zbekiston jahon ilm-fan rivojiga benazir hissa qo‘shgan Buyuk allomalar vatanidir. Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Burhoniddin Marg‘inoniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi nomlarining o‘zi zarhal harfli mo‘tabar kitob bo‘lardi.

Buyuk ajdodlarini e’zozlagan yurt, ularning ilmiy merosi va g‘oyalarini o‘zining ilmiy taraqqiyotining ustuni hisoblagan millat, rivojlanishning o‘ziga xos “uyg‘onish” davriga zamin yaratadi.

Dunyoda ilmning chegarasi yo‘qdir. Ilm-fan, xususan ilmiy faoliyat hozirgi kunda dunyodagi istalgan mamlakat rivoji uchun o‘ta muhimdir. Chunki ijtimoiy hayotning ko‘pgina sohalari o‘z rivojida ilm-fan yutuqlari, ilmiy ishlanmalardan keng foydalanib kelmoqda.

Aytish joizki, mamlakatimizda ilm-fanga intilish va uning jozibadorlik muhitini shakllantirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish, yosh iste’dod egalarini aniqlash va ijtimoiy muhofaza qilish hamda rag‘batlantirish bo‘yicha “BEST PUBLICATION” ilm-ma’rifat markazi ham amaliy sa’y-harakatlar olib borilmoqda.

Yurtboshimiz boshchiligida ilm-fan rivoji yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarga daxldorlik hisi bilan yashash, har birimizning kasb-hunarimiz orqali tinimsiz harakat qilishni, yangiliklar yaratish va Yangi O‘zbekiston timsolining bir ifodasi bo‘lish biz uchun ham farz, ham qarzdir.

Hech shubhasiz, tengdoshlarimizdagi ilm-fanga bo‘lgan ishtiyoq, kelajakda shu el koriga yaraydigan, xalq manfaatlarini o‘ylaydigan barkamol inson bo‘lib yetishish istagi, o‘zlarining yuksak aql salohiyatlari bilan yurtimiz tamadduniga salmoqli hissa qo‘shadilar.

Ushbu kitobda “Intellektual izlanuvchi” esdalik ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan bir guruh Vatanimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yuksaltirishga va shon-shuhratini oshirishga munosib hissa qo‘shayotgan, yurtimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida faolligi va tashabbuskorligi bilan tengdoshlariga o‘rnak bo‘layotgan, shuningdek o‘qishda va mehnat faoliyatida yutuqlarga erishganlarning hayoti va ilmiy faoliyati o‘rin olgan.

Muxtasar aytganda, ilm – saodat kaliti, ilm – xazina va eng buyuk sharafdir...

## HAY’AT A’ZOLARI

| | | |
|---|---|---|
| **QURBONOVA MUQADDAS OMONOVNA** | - | Farg'ona Davlat universiteti, filologiya fanlari doktori, PhD |
| **XASANOV NURMUHAMMAD XAYDARALI O‘G‘LI** | - | “Best Publication” ilmiy tadqiqotlar markazi ilmiy kengash raisi. |
| **YUSUFJONOV QUYOSHBEK KOMILJON O‘G‘LI** | - | “Scientific Academy” ilmiy tadqiqotlar markazi ilmiy kengash raisi . |
| **O‘KTAMOV SHOXRUXBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI** | - | “Best Publication” ilmiy tadqiqotlar markazi bosh kotibi. |
| **JALILOV BAXROMJON ODILJONOVICH** | - | Raqamli texnologiyalar markazi direktori, texnika fanlar nomzodi. |
| **MAQSUDOV ULUG‘BEK QURBONOVICH** | - | Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). |
| **XONKELDIYEV SHER XAKIMOVICH** | - | Pedagogika fanlari doktori, professor. |
| **ASKAROVA O‘G‘ULXON MAMASHAKIROVNA** | - | Pedagogika fanlari doktori, professor. |
| **XUJAMBERDIYEVA SHAXNOZA KUPAYSINOVNA** | - | Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) |
| **ERKABOYEVA NIGORA SHERMATOVNA** | - | Pedagogika fanlari doktori, dotsent |
| **TOJIBOYEVA XILOLA MAXMUTOVNA** | - | Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent |
| **QAYUMOV ABDUVAHOB ABDURASHIDOVICH** | - | Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) |
| **SHAMSIYEVA MAXFUZAXON XUJA QIZI** | - | Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) |
| **TURGUNBAYEV RUSTAMJON MAMURALIEVICH** | - | Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, “Antique World” xalqaro ilmiy akademiyasi professori |
| **TUYCHIYEVA INOYAT IBRAGIMOVNA** | - | Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) |
| **MERZON ELENA EFIMOVNA** | - | Qozon (Volgabo‘yi) Federal Universiteti Yelabuga Instituti direktori,Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent |
| **CHEREMISINOVA LARISA IVANOVNA** | - | Rossiya Federatsiyasi, FDY OTM (Federal davlat byudjet oliy ta’lim muassasasi) N.G.Chernishevskiy nomidagi Saratov davlat milliy tadqiqotlar universiteti, filologiya fanlari doktori, dotsent |
| **KIYAKBAEVA ULBOSIN KOZIBOYEVNA** | - | Qozog‘iston Respublikasi, Abay nomidagi Qozog‘iston milliy pedagogika universiteti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent |
| **SHVETSIRINA MIXAYLOVNA** | - | Pedagogika fanlari doktori, professor, professor |

| | |
|---|---|
| | Nijniy Novgorod davlat universiteti Biologiya va biotibbiyot instituti biofiziklari |
| **CHISTOV VLADIMIR VLADIMIROVICH** | - Psixologiya fanlari nomzodi, Qozogʻiston Davlat xotin-qizlar pedagogika universitetining nazariy va amaliy psixologiya kafedrasi dotsenti |
| **SEMENOVA LIDIYA EDUARDOVNA** | - Psixologiya fanlari doktori, dotsent, Kozma Minin nomidagi Nijniy Novgorod davlat pedagogika universiteti (Minin universiteti) klassik va amaliy psixologiya kafedrasi professori |
| **MESENYASHINA LYUDMILA ALEKSANDROVNA** | - Pedagogika fanlari doktori, professor, Chelyabinsk davlat universitetining rus tili va adabiyoti kafedrasi professori |
| **MALKOCH VITALIY ANATOLIEVICH** | - San’at fanlari doktori, Moldova Respublikasi Fanlar akademiyasi yetakchi ilmiy xodimi |
| **KUNZA ELENA VLADIMIROVNA** | - Yuridik fanlar doktori, professor, rahbar. Chelyabinsk davlat universitetining jinoyat huquqi va kriminologiya kafedrasi |
| **DAVLETSHIN RASHIT AXMETOVICH** | - Tibbiyot fanlari doktori, professor, Boshqird davlat tibbiyot universiteti 2-sonli gospital terapiya kafedrasi mudiri |
| **VLASOVA ANNA VLADIMIROVNA** | - Tarix fanlari doktori, dotsent, Ural ijtimoiy-iqtisodiy instituti (filial) OUP VO "Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi" ilmiy-tadqiqot sektori mudiri |
| **BUROV ALEKSANDR EDUARDOVICH** | - Pedagogika fanlari doktori, dotsent, “Jismoniy tarbiya” kafedrasi mudiri, Astraxan davlat texnika universiteti “Sport tayyorgarligi va amaliy tibbiyot texnologiyasi” kafedrasi professori |

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНЫЕ


| | |
|---|---|
| **Xudoyberganova Shaxodat Baxtiyor qizi** *“ILK QADAM” O`QUV DASTURIDA NUTQ, MULOQOT, O`QISH HAMDA YOZISH MALAKALARINI YORITILISHI* | 13 |
| **Kanatbay Kurbanbayev** *YANGI O’ZBEKISTONDA YANGICHA TA’LIM!* | 18 |
| **Mirzayeva Feruza Xoldarovna** *«CHIZMACHILIK FANINING RIVOJLANISH TARIXI»* | 22 |
| **Avazbek Rasulov Faxriddin o’g’li** *АХБОРОТ ИНФРАТУЗИЛМАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ РАҚАМЛИ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ОМИЛИ СИФАТИДА* | 26 |
| **Allanova M. M.** *TEACHING METHODS FOR YOUNG LEARNERS* | 29 |
| **Rahmatullayeva Feruza Otamurod qizi** *MAKTABGACHA VA BOSHLANG’ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O’QITISH METODIKASI* | 32 |
| **Бердышева Альбина Сағынбевна** *ҚАРАҚАЛПАҚСТАН ҚАЗАҚТАРЫ СӨЙЛЕСІМІНДЕГІ КИІЗ УЙГЕ БАЙЛАНЫСТЫ ДИАЛЕКТ СӨЗДЕР* | 34 |
| **Muzaffarova Xayitgul Nesibovna** **Toshturdiyeva Zoira** *ERTA YOSHDAGI NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALAR OILASINING IJTIMOIY MOSLASHUVI VA INTEGRATSIYASI* | 36 |
| **Курбонова З.Ч** **Бабаджанова Ш.А.** *COVID-19 ДА ТРОМБОФИЛИЯ ГЕНЛАРИ ПОЛИМОРФИЗМИНИНГ ПРОГНОСТИК АҲАМИЯТИ* | 40 |
| **Каримов Нуриддин Қурбон ўғли** *АМУДАРЁ ҲАВЗАСИДАГИ КИЧИК ДАРЁЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ* | 50 |
| **Bazarova Shirin Desyarovna** *CAUSES AND PREVENTION FACTORS OF PEDAGOGICAL CONFLICTS IN PRIMARY CLASS TEACHING ACTIVITY* | 57 |
| **Noraliyeva Sohibaxon Nematjonovna** *BOSHLANG’ICH TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH – PRILS TIZIMIDAN FOYDALANISH* | 62 |
| **И.Ш.Алқаров** *ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЛАБА-ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШ МЕХАНИЗМИ ВА МЕТОДЛАРИ* | 64 |
| **Адамбой Болтабаев Садуллаевич** *КЛОПЫ-МИРИДЫ (HEMIPTERA-HETEROPTERA: MIRIDAE) ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ* | 72 |
| **Jumayev Xusniddin Sirojovich** *ELEKTR ENERGIYASIDA HARAKATLANUVCHI KO‘P MAQSADLI TAJRIBA-O‘QUV MASHQ MASHINASINING PROTOTIPINI ISHLAB SHIQISH* | 74 |
| **Ortiqova Maftuna** *ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR G’AZALLARINI MUQOYASA TA’LIM METODI ORQALI O’QITISH USULLARI.* | 82 |
| **Odinayev Abbosbek Akram og’li** | 85 |

| | |
|---|---|
| *QIZIQTIRUVCHI USULLAR BO‘YICHA USLUBIY TAVSIYALAR* | |
| **Davronova Nilufar Xolmuratovna**<br>*INFORMATIKA FANIDA QO‘LLANADIGAN INTERFAOL USULLAR VA ULARNING AHAMIYATI* | 328 |
| **Dexqonova Dilnoza Rahmatullayeva**<br>*UMUMTA’LIM MAKTABLARINING BOSHLANG’ICH SINFLARIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI.* | 335 |
| **Mahmudova Dilobarxon Sobirjon qizi**<br>*BUYUK MUTAFAKKIRLARI IJODIDA INSONPARVARLIK G’OYALARI* | 339 |
| **Musurmonova Dilshoda Dadajon qizi**<br>*MUALLIM— MILLAT YUZI.* | 343 |
| **Djurayeva Gulnoza Xamdamovna**<br>*MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI BOLALARGA SIFATLI TA'LIM BERISHDA TARBIYALACHILAR MAHORATI* | 346 |
| **Odamboyev Rasulbek Yuldash o’g’li**<br>*INVESTING IN UZBEKISTAN’S ECONOMY: A COMPREHENSIVE GUIDE TO THE CHALLENGES AND OPPORTUNITIES* | 350 |
| **Elmurodov Azizjon G‘ayratovich**<br>*BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISH METODIKASI* | 355 |
| **Eraliev Alisher Abduxalilovich**<br>*IQTISODIYOT VA UNING TARMOQLARINI RAQAMLASHTIRISH. IQTISODIYOT SOHASIGA RAQAMLI TEXNALOGIYALARNI OLIB KIRILISHI* | 359 |
| **Ergasheva Zulfiya**<br>*FIZIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI* | 364 |
| **Erkinjonov Hurmatillo Izzatillo o’g’li**<br>*BOLALARDA MATEMATIK QOBILYATNI RIVOJLANTIRSAK NIMALAR SODIR BO’LADI?* | 367 |
| **Erkinova Guljaxon Olimovna**<br>*BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI O’QISH DARSLARIDA TAFAKKUR VA INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISH* | 370 |
| **Eshboyeva Sevara Sharafovna**<br>*BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA NOANANAVIY USULLARDAN FOYDALANISH BO‘YICHA USLUBIY TAVSIYALAR.* | 375 |
| **Eshto’rayeva Xurshida Ibodullayevna**<br>*INFORMATIKA INSON TARAQQIYOTINING ASOSIDIR.TA’LIM MUASSASALARIDA INFORMATIKA DARSLARIDA O'ZLASHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.* | 379 |
| **Tashanova Farida Zoirovna**<br>*PEDAGOGIK TA’LIM KLASTERI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR KASBIY KO‘NIKMASINI AMALIY SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI* | 382 |
| **Qahromona Farzona**<br>*BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI ONA TILI MASHG‘ULOTLARIDA KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI* | 387 |
| **Fayzullayev Sarvar Ibrohim o‘g‘li**<br>*TIBBIYOTDA O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA NUTQIY KOMPETENTSIYASINI INTEGRATSION O‘QITISH MEXANIZMI.* | 391 |
| **Djalolov Zafarjon**<br>*FILOLOGIYA FANLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LIDAGI ZAMONAVIY LINGVISTIK TADQIQOTLAR* | 397 |
| **Yuldasheva Nargiza Rustamaliyevna** | 400 |

# TIBBIYOTDA OʻZBEK VA INGLIZ TILLARIDA NUTQIY KOMPETENTSIYASINI INTEGRATSION OʻQITISH MEXANIZMI.

**Fayzullayev Sarvar Ibrohim oʻgʻli**
*Toshkent tibbiyot akademiyasi*
*Oʻzbek va xorijiy tillar kafedrasi oʻqituvchisi*

**Kalit soʻzlar:** *Integratsion oʻqitish, Tibbiyotda tajribada talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirish, tibbiy OTM,*

# MECHANISM OF INTEGRATED TEACHING OF SPEECH COMPETENCE IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES IN MEDICINE.

**Fayzullayev Sarvar**
*Tashkent Medical Academy*
*teacher of the Department of Uzbek and Foreign Languages*

# МЕХАНИЗМ ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЗБЕКСКОМУ И АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКАМ В МЕДИЦИНЕ.

**Файзуллаев Сарвар**
*Ташкентская медицинская академия*
*преподаватель кафедры узбекского и иностранных языков*

Dunyoda integrativ ta’lim (Blended Learning), integratsion metodik yondashuv asosida talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirish masalasiga doir ilmiy munozaralar va forumlarni tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, talabalarining nutqiy kompetentsiyasi tibbiy ta’limda til oʻrganishni kommunikativ modelini takomillashtirish, talabalarda interfaol muloqot koʻnikmasini rivojlantirish jarayonida akmeologik va integratsion yondashuvning oʻziga xosliklarini aniqlashtirish, kommunikativ hamkorlikni tashkil etishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish hamda samarali foydalanish, tibbiy oliy ta’lim darajasini sifat jihatidan metodik takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa talabalarining nutqiy kompetentsiyasini integratsion metodik rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish, integrativ-fasilitatsion ta’lim muhitini yaratish orqali kasbiy faoliyatga kommunikativ yoʻnalganlikni tarkib toptirish modelini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Jahonda talabalarining nutqiy kompetentsiyasini til oʻrganishini takomillashtirish asosida integratsion metodik foydalanish, integrativ ta’lim muhitini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga talabalarining nutqiy kompetentsiyasini integratsion takomillashtirishning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlarini tibbiy ta’lim mazmuniga keng tatbiq etish, talabalarni samarali muloqotga tayyorlash tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahonda til oʻqitish metodikasi keyingi yillarda bir qator yutuqlarni qoʻlga kiritmoqda. Buning natijasida jamiyatning ijtimoy-iqtisodiy sohalarida muayyan rivojlanishlar, islohotlar sodir boʻlmoqda. Bugun dunyo til oʻqitish metodikasiga andoza

bo‘layotgan Ingliz tili ta’limi yutuqlaridan aksariyat mamlakatlar samarali foydalanib kelmoqda. Kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, tibbiyotda til o‘qitish metodikasida integratsion nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish asosiy masalalardan bo‘lib, uni amalga takomillashtirish, talabalarining nutqiy kompetentsiyasiga ko‘proq bog‘liq bo‘lmoqda. Dunyoda ingliz, fransuz, nemis va boshqa rivojlangan xorijiy tillarni o‘qitishga doir ilmiy adabiyotlarda talabalarining nutqiy kompetentsiyasini mazmuniga, foydalanganlik darajasiga alohida e’tibor beriladi va ta’lim jarayonidan unumli foydalaniladi. O‘zbek va ingliz tillarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini rivojlantirish asosida malaka sertifikatiga ega bo‘lgan talabalar va pedagoglarga imtiyozlar berish hamda ularni rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori qabul qilindi[30].

Tibbiyotda tajribada talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirish o‘zaro muloqotning integratsion metodik o‘qitish asosida samarali bo‘lishiga qaratiladi. Amalda foydalaniladigan talabalarining nutqiy kompetentsiyasini avvaldan belgilangan ma’lum mezonlar asosida takomillashtiriladi. O‘zbekistonda ham o‘zbek va ingliz tillarni o‘qitishda talabalarining nutqiy kompetentsiyasini integratsion metodikasi didaktik yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg‘uloti jarayonida lingivistik kompetensiyalarni rivojlantirish nutqiy kompetensiyalarning takomillashishiga olib kelish ko‘zda tutilmoqda. Tibbiy OTM talabalarining nutqiy kompetentsiyasini tajribalar asosida til o‘rganishga qo‘yilgan aniq talablar orqali (tinglab tushunish), (gapirish), (o‘qish) va (yozish) malakalari rivojlantiriladi. O‘zbek va ingliz tillarni o‘qitishda mazkur metodika biroz ijodiyroq foydalanish maqsadga muvofiq, bizningcha. Chunki talabalar tilning tashuvchilari sifatida muayyan nutqiy qo‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan holda OTMga keladilar. Talabalarning nutqiy kompetentsiyasini o‘zbek va ingliz tilida matn yoki suhbatni tinglab tushunadi, o‘qiy oladi, gapira oladi va yoza oladi. Bunday vaziyatda o‘zbek va ingliz tili o‘qitish metodikasining asosiy vazifasi talabalarda eshitganlarini *to‘g‘ri tushuna olish*, *adabiy tilda ravon va mantiqan izchil gapira olish, matnni o‘qib tushuna olish* hamda *to‘g‘ri va mazmunli yoza olish* ko‘nikmalarini rivojlantirish lozim. Bu mas’uliyatli vazifani, albatta, talabalarining nutqiy kompetentsiyasini integratsion takomillashtirilgan o‘quv topshiriqlari orqali amalga oshirish mumkin. Shu ma’noda tibbiy ta’limda o‘zbek va ingliz tilidan talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishning yangi metodikalarini ishlab chiqish, lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish masalasi nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Respublikamizda bo‘lajak shifokorlarning qobiliyati va malakalarini rivojlantirish, kasbiy faoliyatga taktik va strategik yo‘nalganlikni tarbiyalash, talabalarning tibbiy ta’lim faolligini takomillashtirishga ustuvor yo‘nalish sifatida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, tibbiy ta’lim amaliyoti talabalarda nutqiy kompietensiyani rivojlantiruvchi integratsion yondashuv asosida takomillashtirish, kommunikativ kompetentlilikni takomillashtirish omillari va mezonlarini aniqlashtirish, konseptual modeli va amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Davlat ta’lim standartlari va milliy baholash mezonlariga muvofiq tarzada o‘zbek va ingliz tilini o‘qitishda savol, mashq va topshiriqlar mazmunini integratsion tanqidiy o‘rganish, ularni nutqiy ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish va baholash nuqtai nazaridan tavsiflash va tasniflash zarurati mavjud.

---

[30] www.Lex.uz. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori Toshkent sh., 2012-yil 10-dekabr, PQ-1875-son(“Xalq so‘zi” gazetasi, 11.12.2012-y., 240 (5660)-son; O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. Aripov. Toshkent sh., 2017-yil 11-avgust, 610-son (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 32-son, 820-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2019-y., 09/19/395/3115-son)

Ma’lumki, oʻzbek va ingliz tillari ta’limida oʻquv topshiriqlarini lingvopedagogik asoslarini integratsion metodik rivojlantirish, oʻzbek va ingliz tillarida oʻqitish, oʻquv jarayoniga tegishli barcha turdagi oʻquv qoʻllanma, darslik, koʻrgazmali qurollardan tortib multimedia AKT vosita, materiallari asosida oʻquv topshiriqlarini tibbbiy OTM talabalariga mos, innovatsion tizimli va oʻrganishga qulay samarali usullarini ishlab chiqarish bugungi kunning dolzarb masala sifatida e’tibor berilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi tibbiy oliy ta’lim tizimida oʻzbek va ingliz tillarini metodik integratsion oʻqitish, oʻquv materiallari asosida oʻquv topshiriqlarini rivojlantirish, samarali ta’lim berish maqsadida tibbiyot mutaxxassislarini oʻzbek va ingliz tillarida oʻqitish sifatini samarali ta’minlash, oʻzbek va ingliz tillarida erkin soʻzlasha oladigan tibbiy mutaxassislarni tayyorlash, tibbiy oliy ta’lim tizimida tilshunoslik fanlarini oʻqitishni tubdan takomillashtirish, ushbu yoʻnalishlardagi oʻquv dasturlarining uzviyligi va uzluksizligini integratsion ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Jahonda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasidan kelib chiqib, ingliz tillarni oʻqitilishi nutqiy kompetentsiyalar, koʻnikma va malakalarga qoʻyiladigan talablar hamda til materialidan iborat ingliz tili oʻqitish mazmunini takomillashtirish, innovatsion pedagogik, kompetentsiyalarni qoʻllash metodikasini takomillashtirish, tibbiyotdagi talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishga boʻlgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi. Ayniqsa tibbiyotda talabalarni integratsion oqitishni metodik asoslarini takomillashtirish 1-2 kurs talabalarida oʻzbek va ingliz tillarni oʻqitishda til oʻrganishga ishtiyoqi, layoqati va munosabati kabi individual jihatlarini, tafakkur, xotira, diqqat kabi yoshga oid psixologik xususiyatlarini, til tajribasi va til ta’lim sharoitini inobatga olib sifat va samaradorlikni takomillashtirish boʻyicha tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma’lumki, soʻnggi yillarda ta’lim-tarbiya tizimida yangi avlod tarbiyasida jahon fani va kompetentsiyasining ilgʻor yutuqlarini jamlagan, oʻtmish ajdodlarimiz aql-zakovati mahsuli sifatida yaratilgan, milliy va ma`naviy qadriyatlarimizga tayangan holda zamonaviy ta’lim-tarbiya berish uslublarini takomillashtirish muammosi vujudga keldi. Barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosi sanalishi bejiz emas. Shu bois mamlakatimizda ham jismonan, ham ma’nan barkamol avlodga ta’lim-tarbiya berish davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan. “Ta’lim toʻgʻrisida”gi yangi Qonun (2020-yil 23-sentabr)da barkamol shaxs tarbiyasi davlat ahamiyatiga molik muhim masala, ustuvor yoʻnalish sifatida belgilandi. Bu ta’limiy maqsadga erishishning samarali vositalaridan biri “oʻqitishning ilgʻor shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni va kompetentsiyalarni tibbiy ta’limning texnik va axborot vositalarini oʻquv jarayoniga joriy etish”dan iborat. “Tibbiy ta’limini rivojlantirish mazmunini tubdan isloh etish va ta’lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga koʻtarish davlat dasturi va boshqa me’yoriy hujjatlarda tibbbiy ta’lim tizimini isloh qilish vazifalari belgilangan boʻlib, bu esa tibbiy ta’lim jarayonida talabalar bilan ishlash, ularni kasbiy barkamol shifokor sifatida rivojllantirish davlat miqyosida muvaffaqiyatli amalga oshirilishida zamin boʻlmoqda. Tibbiyotda tillarni oʻrganish, tibbiy ta’lim jarayoni oʻqitishda foydalanilayotgan usul, uslub va shakllarining turli- tumanligi bilan ajralib turadi. Tibbiy ta’lim amaliyotida fanlararo aloqadorlikni yoʻlga qoʻyish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir boʻlayotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik talabalarning bilimlarni ongli oʻzlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda muhim oʻrinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik tibbiyotda darsda va darsdan tashqari mashgʻulotlarda, ishlab chiqarishda va har qanday ta’limiy faoliyatda oʻzlashtirgan bilim, koʻnikma va malakalarini

erkin qoʻllash imkoniyatini beradi. Mamlakatimizda keyingi yillarda OTM talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishda oʻzbek tili oʻqitish metodikasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi.

Tibbiyotda talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishda oʻzbek va ingliz tilini oʻqitishda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish integratsion yondashuv zarurati tadqiqotimiz mavzusini belgilab berdi. Oʻzbek va ingliz tilni matn orqali integratsiyalab oʻqitish metodikasi, talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishda, oʻzbek va ingliz tili ta’limining bugungi integratsion yondashuvlarga mos ravishda eng murakkab boʻlib turgan matn tahlili ustida ishlash, uni oʻqiy olish, tushuna olish va eng muhimi, matn yarata olish koʻnikmalarini integratsiya qilgan holda metodik texnologiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb bildik.

Rus pedagoglari A.N.Leontev, J. A. Ponomarev, S.L.Rubenshteyn[31] kabilar oʻquv topshiriqlari va ularning didaktikada tutgan oʻrni, vazifalari haqida kuzatishlar olib borgan. Jumladan, Leontiev “nutqiy kompetentsiya ” tushunchasini quyidagicha tavsiflaydi: “Nutq– muayyan shartlarga asoslanib, kasbiy salohiyatini nomoyon etuvchi omil, oldinga qoʻyilgan maqsaddir”[32]. Jahon pedagogikasida talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishda metodik, psixologik-pedagogik tadqiqi bilan Avstraliyalik olim, professor Jak Richards maxsus shugʻillangan[33]. Shuni ta’kidlash joizki, gʻarb pedagogikasi amaliylikka asosiy e’tiborni qaratadi. Dastlabki pragmatik gʻoyalar amerikalik faylasuf va pedagog D. Dyui[34] tomonidan ishlab chiqilgan. Ingliz tajribalardan oʻz vaqtida xulosa chiqargan F.Sh.Alimov, B.G.Kulmatov, kognitiv-pragmatik yondashuvni Oʻzbekiston ta’lim tizimiga birinchi boʻlib istiqlolning dastlabki yillarida olib kirgan edi. Mazkur yondashuv oʻz vaqtida qoʻllab-quvvatlanmadi. Shuning uchun hanuzgacha oʻzbek va ingliz tili ta’limida amaldagi talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishda kutilgan samarani bermay kelmoqda. Bugungi pedagogik, lingvodidaktik sharoit oʻquv topshiriqlarini integratsion yondashuv asosida takomillashtirishni taqozo qiladi, shuningdek, talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishda B.Blum taksanomiyasini ham inobatga olish lozim, ingliz tili oʻqitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. Shuningdek, tibbiy oily ta’limda oʻzbek va ingliz tilidan til sathlarini oʻqitish metodikasi boʻyicha ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur dissertatsiya mazmunidan bugungi kunda oʻzbek va ingliz tili ta’limida keng foydalanish mumkin.

Shu ma’noda, mazkur ish oʻzbek va ingliz tilni oʻqitish, tibbiy ta’lim amaliyotiga tatbiq etishda talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishning pedagogik, psixologik va lingvometodik zaruratlarini asoslash, integratsion yondashuv asosida tavsiflash hamda ularni vazifasi nuqtai nazardan tasniflash, tibbiy ta’lim amaliyotga tatbiq qilish vazifalarini bajaradi.

Tibbiy oliy ta’lim tizimida talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishning bugungi ahvolini oʻrganish va pragmatik mazmundagi oʻzbek va ingliz tili ta’limidagi oʻrnini

[31] Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Педагогика, 1972. -576 с.

[33] https://www.professorjackrichards.com/mother-tongue-teaching-vs-foreign-language-teaching/

[34] Джон Дьюи. Общество и его проблемы John Dewey. The Public and its Problems. Denver, 1927. / Дж. Дьюи. Общество и его проблемы. — Перевод с английского: И. И. Мюрберг, А. Б. Толстов, Е. Н. Косилова. — М., 2002.

integratsion belgilash; darsliklardagi oʻquv materiallarining DTS hamda dastur talablariga mosligini qiyosiy oʻrganish va tahlilga tortish, shuningdek, ularni metodik oʻqitish bilan bogʻliq muammolarning sabablarini integratsiya asosida aniqlash va yechimlar taklif qilish; talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirish orqali talabalarda tinglab tushunish, gapirish, oʻqib tushunish va yozish (savodli va mazmunli matn tuzish) koʻnikmalarini integratsiya asosida rivojlantirish metodlarini ishlab chiqish; fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishning mazmun, usul, vositalarini ishlab chiqishni integratsion takomillashtirish; tibbiy oliy ta’limda talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishning qulay va amaliy ahamiyatga ega metod, usul va texnologiyalarni tanlash; tibbiy oliy ta’lim tizimining oʻzbek va ingliz tili uchun maxsus talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishning tizimli “Oʻzbek tili” va “Ingliz tili” darsliklari mazmunida amaliyotga joriy etiladi; tibbiy oliy ta’limda oʻzbek va ingliz tilni oʻqitish orqali talabalarda oʻzbek va ingliz adabiy til, adabiy talaffuz koʻnikmalarini rivojlantirish, tibbiy terminalogik hamda imloviy savodxonlik, soʻz boyligini takomillashtirish va mustaqil ishlay olish kabi nutqiy koʻnikmalarni kompleks takomillashtirish, talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishning integratsion mexanizmini ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilinadi; talabalarining oʻzbek va ingliz tilida nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishga doir koʻnikma va malakalari rivojlantirilgan, dars mashg’uloti jarayoniga pragmatik yondashuvga asoslangan nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirish metodikasi joriy qilinadi;

Ushbu ilmiy maqola oʻzbek va ingliz ta’limini, pedagogika va ta’lim tarixini oʻrganishda, oʻzbek va ingliz tili oʻqitish metodikasini takomillashtirishda, oʻzbek va ingliz tili fonetikasining ta’limda tutgan oʻrnini belgilashda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.**

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Ta’lim toʻgʻrisida”gi Qonuni. // Barkamol avlod-Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori. –T: 1997. 20-29 b.

2. Axmedova M.E. //“Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari”// Monografiya //“Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi” MCHJ Toshkent-2022, 136 bet.

3. Рубенштейн С.Л. Проблемы общей психологии. – М.: Педагогика, 1976. -416 с. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Педагогика, 1972. -576 с. Пономарев Я.А. Психология творчества и педагогика, 1976. -280 с. Розыков О.Р. Теоретические основы оптимального применения системы учебных задач в обучении школьникоы (на материалах гуманитарных предметов). Автореферат дисс…док. пед. наук. – Тбилиси, – 1986. -50 с. Розиков О.Р. ва бошкалар. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. -256 б. Краткий педагогический словарь. – М.: 1984

4. Axmedova M.E. //“PEDAGOGIKA” dasrlik //”Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi” MCHJ Toshkent - 2022, 212 bet.

5.Abdullayev Y. “Eski maktabda xat-savod oʻrgatish” – Toshkent: Oʻrta va Oliy maktab, 1960. – 150 b.

6. Jalolov J. Ingliz tili oʻqitish metodikasi. Toshkent “Oʻqituvchi” 1998.

7. Axmedova M.E. Talabalarda mustaqil ta’lim koʻnikmalarini rivojlantirishning metodik xususiyatlari // Oʻzbekiston til va madaniyat. Metodika jurnali.T. – Тошкент, 2022. - №1(4). - Б. 70-81.

8. Axmedova M.E. Kredit tizimida mustaqil topshiriqlar // TIL VA ADABIYOT TA’LIMI jurnali. -Тошкент, 2022. №6. - Б 18-20. (13.00.00; №8).